

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TABIATSHUNOSLIK FAKULTETI

“UMUMIY BIOLOGIYA” KAFEDRASI

**GEOBOTANIKA
FANIDAN**

Amaliy ish



Mavzu: Fitosenozni o`rganish .

Tuzuvchi:

Yo'ldashev K.

URGANCH-2011

1-AMALIY ISH.

Fitosenozni o`rganish .

Fitosenozni o`rganish usullari.

Tabiatda o`simliklar jamoasini,uning strukturasini,tuzilishini,hayotiy shart-sharoitlarini va tarkalish konuniyatlarini o`rganish geobotonik tekshirishlar deyiladi. O`simliklar jamoasini belgilatshga V.N.Sukachev birinchi bo`lib aniqlik kiritgan. Uning aytishicha, o`simlik jamoasi (Fitosenoz)-bu o`simliklar yig`indisi bo`lib birgalikda bir xil territoriyada o`sib, ma`lum bir tarkibni ifodalovchi, uning tuzilishi,o`simliklarni bir-biri bilan birga muxit sharoitlari bilan xarakterlanadi. Bu o`zaro bir-biriga bo`lgan munosabat xarakteri bir tomondan hayotiylik, boshqacha aytganda ekologik, o`simlik xususiyatlari, tuproq, inson va xayvonlar tasiri bilan aniqlanadi. Aniq jamoalar (Fitosenoz), zooSenoz va geomuxitlardan iborat murakkab Senoz biogeoSenozni hosil qiladi . O`simliklar jamoasi xilma-xil bo`lgani uchun ham ularning ko`pchiligi juda murakkab tuzilgandir.

Jamoaning asosiy belgilari floristik tarkib, ekobiomorf (hayotiy formasi, o`simliklarning ekologik gruppasi) tarkibi, Senopopulyasiya xarakteri,turlarning Senotik belgilari va boshqalardan iborat. Jamoa (Fitosenoz) komponentlarini, son munosabatlarining tarkibini aniqlatsh bilan birga belgilanadi.Struktura elimentlariga (er ostki va ustki) qavatlik (yaruslar)lar,vertikal strukturani xarakterlovchi sinuziya va Fitosenozning gorizontali bo`linishini xarakterlovchi belgilar kiradi. Dala amaliyotida talabalar jamoa (Fitosenoz)ni asosiy belgilari bilan tanishib Chikadilar.

Assosatsiya-bu ayrim sharoitda bir tuda o`simliklar yoki bir necha turlarga oid o`simliklarning jamoa bo`lib yatshatshiga aytiladi. Ayrim olingan Assosatsiyaga o`simliklar jamoasida turlar tarkibi bir xil sharoitda bo`lgan o`simliklar Assosatsiyasi kiritiladi. Jamoa strukturasini bir xil bo`lishi uchun albatta qavatlik (yarusning) tuzilishi va yil bo`yi uning o`sish ritmi hisobga olinishi kerak.

Yatshatsh joyi yoki ekotip-bu jamoa joylatshgan joyning ekologik sharoit yig`indisi bo`lib, shu bilan birga jamoa hayotiy davrida uning uzida hosil bo`lgan ekologik sharoitlar yig`indisidir. Marshro`t bo`yicha geobotonik tekshirishlarda o`simliklarni har bir tipi orasidan talaba formatsiya va Assosatsiyani to`g`ri ajrata bilishi va to`g`ri nomlatshi muxim ahamiyatga egadir.

Namuna maydonchasi ajratish, jamoa strukturasini va tarkibini o`rganish.

Joy tanlatsh va namuna maydonini dala sharoitida aniq bir joydagi o`simliklar Assosatsiyasini ajratish asosiy ishlardan biri hisoblanib, bunda jamoaning asosiy belgilari va yatshatsh joyi aniq bo`lishi kerak. Namuna maydonining formasi va o`lchami, o`rganilayotgan jamaoning o`lchami va xususiyatiga bog`liq .Masalan, tog`li rayonlarda namuna maydoni 10x10 m<sup>2</sup>;25x25 m<sup>2</sup>,tekislik joylarda eas 50x50 m<sup>2</sup> dan 100x100 m<sup>2</sup> gacha va undan ko`proq qilib ajratish mumkin. Noqulay joylarda namuna maydonchalari kichik bo`lishi mumkin. Kichik maydonchalar to`rtburchak shaklida bo`lib,unga transekt tortiladi. Masalan,doimiy namlik saqlanib turadigan joylardagi gigrofil o`simliklar,jarlik,emirilgan joylardagi o`simliklar jamoasi yoki xaydaligandan keyin qolib ketgan maydonchalar va xakoza. Namuna maydonida o`rganilayotgan o`simliklar jamoasiga xos bo`lishi,

ya'ni bir xil o'simliklardan tashkil topganligi, inson va hayvonlar kamroq ta'sir qilgan xarakterli

turlar kiradi. Iloji boricha namuna maydonchalari shunday jamoaga joylatshgan bo'lishi kerakki, bunda turli o'simlik tiplaridan vakillar bo'lishi lozim. Namuna maydonini tarqatishda kundalik varaklardan foydalaniladi.

GEBOTANIK TEKSHIRISH USULLARI, Geobotanik tekshirish uchun tekshiruv maydonchalari ajratiladi. Bular muayyan Assosatsiyada qatnashadigan barcha o'simlik haqida to'la ma'lumot bera oladigan bo'lishi-kerak. SHunga ko'ra o't o'simliklaridan tashkil topgan jamoalar 1 m^2 dan 100 m^2 gacha kattalikda bo'lgan maydonchalarda tekshiriladi. O'rmonlarda esa bunday maydonlar $100\text{--}1000$ va hatto 5000 m^2 dan iborat bo'lishi kerak. Bunday maydonlardagi barcha daraxtlar va butalar birma-bir sanab chiqiladi va ro'yxatga olinadi. O't o'simliklar esa shu maydon ichida bir necha (5 yoki 10 ta) kichik maydonchalar ajratish va shu kichik maydonchalarda o't o'simliklar sanalishi hamda ro'yxatga olinishi bilan bajariladi.

Tekshirish maydonlaridagi o'simliklar turma-tur tasvirlanishi kerak. Bunda har bir daraxt, buta va o't o'simligining soni sanaladi, bo'yi o'lchanadi va ular turma-tur jamlanishi natijasida o'rtacha ko'rsatkichdan iborat ma'lumot chiqariladi. Agarda endigina ko'qarib chiqayotgan kichik ob'ektlar ham o'rganilishi kerak bo'lsa shu $10\text{--}100\text{ m}^2$ li maydon ichida 5 yoki 10 ta $0,5$ yoki $1\text{--}4\text{ m}^2$ li kichik maydonchalar ajratilishi va u erdagi kichik maysalar sanalishi orqali amalga oshiriladi. O't o'simliklar o'rganilayotganda ularning og'irligi xuddi shu sondagi (5 yoki 10) kichik maydonchalarning $0,25\text{ m}^2$ da (hamma tomoni 50 sm dan iborat) jular o'rib olinadi va tarozida tortiladi va ma'lum bir maydonda o't o'simliklarining mahsuldorligi aniqlanadi. O'rib olingan o'tlarni ho'llik paytida va quritilgandan keyin tarozida tortilishi ularning ho'l va quruq vaznini Sentner hisobida hisoblab chiqish imkonini beradi.

O'simlik sonini kvadrat usulda baxolatish. Ma'lum tur yatshayotgan joy bir necha sondagi kvadrat maydonchalarga bo'lib tashlanadi, keyinchalik tanlab olingan kvadratdagi o'simliklar soni hisobga olinib, ularni ushbu maydondagi kvadratlar soniga ko'paytirib o'simliklarni umumiy soni aniqlanadi.

Tekshirilayotgan maydonda namunalarni yig'ish usullari.

Ma'lum bir ekotizimning abiotik va biotik tarkibiy qismlarini tekshirish uchun odatda transektlar yoki kvadratlardan foydalanib u erdagi namunalarni yig'iladi.

CHiziqli transekt. Bir xil maydonlardan namuna yig'ish uchun foydalaniladi. Ko'pincha tekshirilayotgan maydonlarda o'simliklarning yatshatish joylari biri ikkinchisi bilan almashtiriladigan xolatlarda yaxshi natija beradi. Er yuzasiga ko'rilgan ikkita kozik oraligidagi tizimcha yoki arkon transektini xolatini bildiradi. Aynan ana shu chiziqli transekt chegarasidagi turlar yig'iladi.


Lentali transekt ikkita transekt orasidagi o'rganiladigan maydon bo'lib, turlarni hisobga olish uchun $0,5$ yoki 1 m maydon ajratiladi. Tekshirilayotgan o'simliklar

jamoasining o`simlikni miqdor va sifat jixatidan ishonchli ma'lumotlar olish uchun chiziqli va kvadrat ramkalardan foydalanish maqsadga muvofik bo`ladi.

Kvadrat ramka metall yoki yogoch dan yasalgan o`lchami 0,25 m<sup>2</sup> yoki 1 m<sup>2</sup> maydonchani chegaralovchi yig`ma asboddir. Ramkani transektni bir tomoniga tatshlab maydoncha tekshiriladi. Keyin chiziqli transekt bo`ylab ikkinchi bir namuna maydonchasiga tatshlanadi. Tekshirish xarakteriga qarab ramka ichidagi turlar ro`yxatga olinadi va ularning miqdori baxolanadi.

Kegayli ramka bir necha katakchalarga ega bo`lgan va katakchalardan sim tushirish mumkin bo`lgan ramka. Ushbu usuldan tekshirilayotgan joyda o`simliklar juda zich o`sayotgan bo`lsa foydalanish ancha qulay bo`ladi. Har bir katakchalardan sim (kegay) tushirilib simga tegib turgan turlarning barchasi hisobga olinadi.

Transekt o`lchov birlik bo`lib, uzunligi 20 m , eni 5 m qilib olingan maydondir.



1-rasm. Yaltiroq qorabargo`t usimligini turli vaqtlardagi vegetasion davri.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TABIATSHUNOSLIK FAKULTETI

“UMUMIY BIOLOGIYA” KAFEDRASI

**GEOBOTANIKA
FANIDAN**

Amaliy ish



Mavzu: Drude va Xul'tni 5 balli tizimi va uni qo'llash qoidalari .

Tuzuvchi:

Yo'ldashev K.

URGANCH-2011

2-AMALIY ISH.

Drude va Xul'tni 5 balli tizimi va uni qo'llash qoidalarini .

O`quv amaliy ishning asosiy maqsadlaridan biri geobotanik tasvir varaqalarini tuzish, fitosenozning asosiy xususiyatlarini xarakterlab berish.

Geobotanik tasvir varakalarini to`ldirishdan oldin fitosenozning yatshatsh joyi sharoiti va hududlarga bog`lik holda tuzilishini va ularning taqsimlanishini o`rganiladi. Chunki Fitosenoz katta maydonlarda o`rganiladi. Bu katta maydon o`rganilib namuna uchun maydon belgilab olinadi. Namuna maydoni Fitosenozning asosiy belgilarini tasvirlab bera olishi kerak. Namuna maydonining o`lchami va formasi, tasvirlatsh kerak bo`lgan Assotsiyatsiyaning xossa va o`lchamlaridan kelib chiqadi. O`rmonda bu maydon 1000; 500; 400 m<sup>2</sup> ni, o`tloq va botkoqlarda- 100; 4; 1 m² gacha bo`ladi. Maydonlar kvadrat, to`rtburchak formalarda yoki uzun lentasimon-transekt ko`rinishda o`lchanadi.

Fitosenozni o`rganishda maxsus blankalardan foydalaniladi, unda yatshatsh joyining xolati, Fitosenozning strukturasi va xolati etiborga olinadi. Yatshatsh joyini tasvirlatshda geografik joylanishi, reliefi, tuproq o`rganiladi. Geografik joylanishi shu erga yaqin axoli punktiga nisbatan qanday joylatshgani va qaysi yo`nalishlarda tasvirlanayotgan Fitosenozga borishi yoritiladi. Reliefni o`rganganda makroreliefni formalari (tekislik, tepalik, past tekislik), So`ngra mezoreliefni ( yon bagir yotqiziqlari, yonbag`ir ekspozitsiyasi, dengiz sathidan balandligi, tik yonbag`ir) ni o`rganib chiqiladi. Undan keyin mikrorelief-uning kichik formalari, tekshirilayotgan tajriba maydonchasini nomi ko`rsatiladi (ko`tarilma, Chukma, tulkinsimon va boshqalar).

Bu ilmiy izlanishlar natijasida tuproq turi, tuproqni tipii (qumli, gilli, sur – qo`ng`ir, gipsli, qumoq, torfli) o`rganilayotgan Fitosenozda uchraydigan flora sostavlari to`liq ro`yxatga olinadi, ularning lotincha nomi va hayotiy shakllari ko`rsatiladi. Oldin daraxt yaruslari, keyin buta, Chala buta, o`tlar, moxlar, lishayniklar yoziladi. Uchraydigan turlarning sonini aniqlatsh ancha kiyinlik tug`diradi. SHuning uchun maxsus shkaladan Drude shkalasidan foydalaniladi.

Fitosenozda uchraydigan turlarning miqdorini baxolatshda va maydonning umumiy qoplamini o`rganishda, o`simlik er osti organlari joylatshishiga ham etibor beriladi. O`rganilayotgan o`simlik qoplamini umumiy maydoniga nisbatan egallagan joyi ball yoki % larda ifodalanadi. Baxolatshda quyidagi shkaladan foydalaniladi (SHennikov, 1964)

5 ball-100-75 %

4 ball---75-50 %

3 ball---50-25 %

2 ball---25-15 %

1 ball---5 % dan kichik

Senopopulyasiyani umumiy baxolatshda to`rning yatshovchanligiga asoslanadi. Yatshovchanlikni baxolatshda turli xil shkalalardan foydalaniladi. ko`pchilik xollarda V.V.Alexinning 3 balli shkalasidan foydalaniladi.

3- ball—o`simlik juda yaxshi rivojlangan va meva beradi

2-ball----o`simlik rivojlangan, lekin shu turga xos bo`lgan ulchamga etmaydi, yaxshi gullamaydi, kam meva beradi.

1-ball----o`simlik juda kuchsizlangan, gullamaydi, vegetasiyasi kuchsiz.

To`qay va to`qayzorlar deganda maxalliy xalk daryo bo`ylariga yaqin bo`lgan joylarni va u erlarda usuvchi o`simliklarni tushunadi. To`qayzorlar ko`p joylarda daraxt, buta, Chala buta va o`tlarning birgalikda o`sishidan tashkil topgpn, bazan Chirmatshib usuvchi (liana) o`simliklar ham uchraydi.

To`qayzorlar O`rta Osiyoning, jumladan O`zbekistonning Cho`l mintaqasidan tog` mintaqasigacha bo`lgan daryo bo`ylarida uchraydi. Lekin uning asosiy maydoni daryolarning o`rta va kuyi oqimi bilan bog`liqdir.

Tog` mintaqasida bunday maydonlar ingichka o`zan-tarmoq hosil qilib yotadi. Tog` jarliklari va soylardan oqib o`tadigan daryo bo`ylarida turli o`simliklar; daraxt, buta va Chala butalar ko`p o`sadi. Ulardan tol, terak, kayin, tog`olcha, do`lana, kamxastak, onda-sonda yong`oq, olma, jiyda kabilar o`sadi. Bulardan tatshqari, itburun, zirk kabi butalar ham ko`p uchraydi. Bu joylarda bir yillik va ko`p yillik o`tlardan agrostis, toirdori, govpechak, kendir, qiyoq, yalpiz va boshqalar daryo yoqalarida Chim hosil qiladi. Adir mintaqasidagi to`qaylar ancha kata-katta maydonlarni tashkil etadi, Chunki bazan suv kelib daryolar toshganda ular kengayib, qirg`oqlarigacha suv chiqadi. Keyinchalik suvlar kamayib, daryolar tor o`zan hosil qilib oqadi va uning Chekkalarida esa to`qayzorlar hosil bo`ladi. Bu mintaqadagi to`qaylarda daraxtlarga nisbatan buta va Chala butalar ( jangak, turang`il, tol, Chakanda, yulg`un), ko`p yillik o`simliklardan lux, oq nilufar, tarvuzpalak kabilar ko`p o`sadi. Bulardan tatshqari yantoq, qizilmiya, turli astragallar hamda Boshhoqdoshlar oilasidan ham ko`pgina o`simliklar o`sadi. To`qaylarning Tuprog`i bo`z va qo`ng`ir tuproqdan iborat. YUqori mintaqalarda toshloq maydonlar ham uchraydi. To`qaylardan qishloq xo`jaligida, Chorva mollarni boqishda malum darajada foydalaniladi. Professor I.I.Granitov bunday joylarni kelgusida o`zlatstirish kerakligi hakida gapirib , u erlarda kichik-kichik suv omborlari barpo etish lozimligini takidlagan edi.To`qaylar daryo yoqalariga yaqin bo`lganligidan u erda o`sadigan o`simliklar turli-tumandir. quyida to`qayzorlarda o`sadigan o`sadigan o`simliklarning bazilari bilan tanishamiz.

YULG`UN.(Tamarix litvinovii) yulg`undoshlar oilasidan,bo`yi 5-6 m ga etadigan buta yoki kichik daraxtdir. Tanasining pustlogi kul rang. Poyasi va shoxchalari ingichka, shoxchalari ildiz tubidan Chikadi. Barglari deyarli redukSiyalangan, Cho`zinchoq, oval shaklida, uchi o`tkir. YUlg`un aprel-may oylarida gullaydi. Gullari mayda, binafsha rangda, diametri 2-4 mm ga yaqin bo`lib novdaning uchida zich to`pgul hosil qilgan.

Mevachasi sentabr oyida pishadi. Mevasi 3-4 kirrali, kusakcha ichida ko`p urug` bo`ladi. Urug`i mayda. YUlg`un asosan to`qayzorlarda qisman Sho`rxoq tuproqli erlarda o`sadi. U Buxoro, Xorazm, Qorakalpogiston voxalarida ko`p o`sadi, uning tanasi juda mustaxkam va Chiroyli bo`lganligidan maxalliy xalk undan har xil maqsadlarda, ayniqsa kamchin dasta uchun foydalaniladi. YUlg`unning novda va shoxlari tarkibida 13% ga yaqin tanid moddasi borligi aniqlangan. U qumir tayyorlatshda va yokilgi sifatida muxim ahamiyatga egadir.

JIYDA.(*Elaeagnus orietalis* L.) jiydadoşlar oilasidan,bo`yi 3 m ga etadigan daraxtdir. Tanasi kizgish-kulrang. Barglari tuxumsimon-Chuzinchoq yoki lanSeSimon, uzunligi 1,5-5 sm,eni 7-20 mm, novdalarining uchi Ko`pincha tikanli bo`ladi. YOsh novdalarining usti va barglari qumushsimon-yaltiroq mayda guborlar bilan qoplangan. Jiyda may oyida gullaydi. Gullari mayda, kurimsiz qumushsimon oq rangli, juda ham yokimli xidlidir. Mevasi sentabr oqtyabr oylarida pishadi.Umaydaroq,uzunligi 1-2 sm ga etadi.Ukam et,usti kizgish-sariq tusda.Uning tarkibida 60 % ga yaqin kand moddasi bor.SHu sababli ham uning mevasi spirt sanoati uchun kimmatli xom-atshyo hisoblanadi.Uning mevasidan kisel va kompotlar ham tayyorlatsh mumkin. Jiyda mevasidan maxalliy xalk dori (ich kotiruvchi, kizamikni engillatshtiruvchi) sifatida foydalaniladi. Jiydaning danagida moy ham ko`p bo`ladi, uning yogoch i kattik bo`lganligidan turli kurilish materiallari sifatida keng foydalaniladi.

MAYMUNJON(*Rubus caesius* L.) ranoguldoshlar oilasiga mansub butasimon o`simlik bo`lib,bo`yi 50-150 sm gacha bo`ladi. Ko`pincha yotib o`sadi. Bir yillik novdalari yoysimon, egilgan Silindr shaklida ko`p tikanli bazan dagal tuklar Bilan qoplangan bo`ladi.bargi 3 bargChali,barg bandi tukli va tikanli, bargChalari noto`g`ri tishsimon kirqilgan, oxirgisi tuxumsimon-romb shaklida o`tkir,Ko`pincha yonidagi barglari 2 bo`laklidir.U may-iyun oylarida gullaydi. Mevasi bir qancha danakchali, kuk qoramtir ranglidir. Guldor novdalari uzun,ularda to`pgullar urnatshgan bo`ladi.Mevasi iyun-iyulda pishadi.Maymunjon tog` mintaqasining o`rta qismigacha bo`lgan joylarda tarqalgan. U ariq va daryo qirg`oqlarida, zax erlarda,to`qayli hamda toshli koyaliklarda o`sadi. Xalk tabobatida maymunjonning xom mevasidan zotiljam kasalligini, bargidan tayyorlangan kiyomdan esa tomoq ogrikini davolatshda foydalaniladi.Undan ozik-ovkat sanoatida turli konfetlar,yokimli liker,spirSiz ichimliklar,limonadlar ishlab chiqarish mumkin.Uning mevasi tarkibida shaqar,efir,oqsil,kaliy va fosfor tuzi,soliSil,olma,Chumoli va limon kislotalari va S vitamin ko`p bo`ladi. Bargi tarkibida esa 300 mg% S vitamin bo`ladi. Maymunjon sifatli asalchil o`simliklar gruppasiga kiradi.

ECHKITOL (*Salix songarica* Aders.) toldoshlar oilasidan, bo`yi 8-10 m ga etadigan daraxtdir. SHoxchalari ingichka, yosh novdalari sargishroq,tuksiz .Barglari tuksiz, sillik, uzunligi 3-7.5 sm, eni 6-10 mm bo`ladi. Echkitol aprel oyida gullaydi. Gullari ikki uyli tangacha shaklida, oqish-sariq. CHangChi uchta pastki tomoni sertuk. Mevasi may oyida pishadi. Kusakchasi tuksiz, uzunligi 5-5,5 mm, shoxchasining uchki qismi osilib turadi. Echkitol to`qaylarda eng ko`p o`sadigan daraxtdir. U boshqa o`simliklar bilan daryo bo`ylarida aloxida qoplam hosil qiladi. Echkitol juda yo`g`onlatshib ketadi. Echkitol tanasining diametri 70-80 yoshda 40 sm dan oshadi.U asosan qurilish material va o`tin sifatida ishlatiladi.

QAMISH (*Phragmites communis* (L.) Trin.) Boshqodoshlar oilasidan. ko`p yillik, ildizpoyali, o`sish sharoitiga qarab bo`yi 2-4 m ga etadi. Uning poyasi tik o`sadi, tuksiz, sillik va ichi bo`sh bo`ladi. Barg novi tekis, bargining eni 5 sm. To`pgullari ro`vaksimon, uzunligi 50 sm bo`lib, pastki bug`imlari tuklidir. Boshqochalarining uzunligi 9-15 mm ga teng. Qamish iyul-oqtyabr oylarida gullaydi va urug`laydi .U ariq bo`ylarida , daryo qirg`oqlarida, kul atrofida hamda

to`qayzorlarda ko`p tarqalgan. Baza tog`ning o`rta mintaqasida ham uchraydi. O`zbekistonda qamishning tabiiy zapaslari Sirdaryo, Zarafshon va Amudaryo vodiylarida uchraydi. To`qaylarda o`sadigan qamishzorlarning har hektaridan o`rtacha 10-15 t, bazar 50-100 t qamish urib olinadi. Xozirgi paytda O`zbekistondagi qamishzor maydonlar bir million hektardan ortiq bo`lib, ulardan turli maqsadlar uchun foydalaniladi. Qamish qoramollar uchun baxor faslida yaxshi oziq o`simliklardan hisoblanadi. YOz paytida poyasi yogoch langanligi sababli, hayvonlar uning faqat bargini eydi. Bu o`simliklardan yuqori sifatli silos tayyorlatish mumkin. Qamish organik moddalarga va mineral tuzlarga juda boydir. O`sish sharoiti va rivojlanish davrlariga qarab, qamish tarkibida S va A vitaminlarning miqdori o`zgarib turadi. Baxorda (o`simlik baxarlik paytida 500 mg % S vitamini bo`lsa, ko`zga ko`rinadigan uning miqdori 100 mg % ga to`g`ri keladi. Qamish vitamin S olish manbalaridan biri hisoblanadi.

SPARJA (*Asparagus persicus* Baker,) piyozguldoshlar oilasidan, bo`yi 60-120 sm ga etadigan, poyasi uralib o`suvchi ko`p yillik o`simlik. SHakli o`zgargan novdalari yatshil rangli, to`g`ri, sillik, yo`g`onligi 0,5 mm, O`rtadagi va yuqori barglari uzun pixli bo`ladi. Sparja may oyida gullaydi. Gullari poya va shoxchalarining uchida joylatshgan. Gul bandi uzun gulqo`rg`oni ikki xil; ChangChisining uzunligi 5-6 mm, qo`ng`iroqsimon, uchi tumtoq. Urug`i yarim sharsimon, uzunligi 3 mm. Mevasi iyun oyida pishadi. U qizil, sharsimon eni 6-7 mm, u ba`zi joyda qalin o`sib, manzara hosil qiladi.

LUX (*Typha elephantina* Roxb.) tuzg`oqdoshlar oilasidan, bo`yi 150-200 sm ga etadigan ko`p yillik o`simlik. Barglari poyasining ostki qismi tevaragida joylatshgan, uzunligi 1-1,7 sm, eni 6-8 mm ga teng. Lux may-avgust oylarida gullaydi. CHangChi va urug`Chi gullari o`simlik poyasining uchida ro`vaksimon guldastaga guj bo`lib to`plangan. CHangChisi urug`Chiga nisbatan yuqoriroqda joylatshgan. Uning uzunligi 2,5-2,9 mm, gullari juda ham mayda, gulqo`rg`oni bo`lmaydi. Balki tukli gulyonbarglari bo`ladi. To`pgullarining uchi ham sertuk bo`ladi. Lux O`zbekistonning daryo va kullarida, ayniqsa, Amudaryo deltasida juda ko`p o`sadi. Uning pishgan mevasi (momik)-uchuvchan tukchalar bilan qoplangan. Bu tukchalar selluloza moddasiga juda boy. Lux va uning boshqa turlaridan sanoatda, qishloq xo`jaligida (arkon va dagal matolar tuqishdi) keng foydalaniladi.

To`qaylarda o`sadigan xarakterli o`simliklarning bir nechasini quyida jadvalga mos ravishda to`ldiring.

1-jadval.

Maydonchalardagi turlar tarkibi.

[illegible]

Fenosenozni tasvirlovchi geobotanik tasvir varakalari va ularni to`ldirish

Tasvir №-----muddati-----

Formatsiya -----

Assosatsiyaning nomi-----

Tajriba maydonchasining nomi-----

Georafik joylatshishi-----

Geomorfologik sharoitlar (relefi)

Mikrorelief =====

Tuproq'i(tuproq turi, namlanish darajasi)-----

Aspekt-----

Umumiy qoplatsh darajasi (% hisobida)-----

Tuproq usti qoplami-----

O`simliklar nechta maydonchada o`rildi-----

Hosil miqdori-----

O`rganilgan joydan xo`jalikda

Foydalanishi-----

Dominant Assosatsiyalar-----

Izox -----

Tadqiqodchining imzosi-----

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TABIATSHUNOSLIK FAKULTETI

“UMUMIY BIOLOGIYA” KAFEDRASI

**GEOBOTANIKA
FANIDAN**

Amaliy ish



Mavzu: Fenologik fazalarni aniqlash va uni varaqaga yozish.

Tuzuvchi:

Yo'ldashev K.

URGANCH-2011

3-AMALIY ISH.

Fenologik fazalarni aniqlatish va varaqalarga yozish.

Fitosenozning davriyligini belgilatishda o'simliklarning hayot proSesslari, ya'ni suv buglatishi, nafas olishi, tatshqi muxitga moddalarni ajratishi, kurtaklarning och ilishi, barglarning tuqilishi, gullatshi, meva va urug'larning etilishi, vegetasiya davrining tugullanishi kabi fenologik fazalar bilan belgilanadi.

Fenologik fazalarni quyidagi belgilar bilan belgilanadi;

1. SHira harakati boshlanishi. Tekshirish uchun olingan daraxtlarning uchi o'tkir asbob bilan yogoch likka teshiladi, oqib Chikkan 1-tomchi vaqti belgilanadi.
2. Kurtaklarning burtishi-kurtakning kattaligiga qarab belgilanadi.
3. Kurtaklarning yozilishi-kurtakdagi qobiqlar kachon och ildi.
4. Yangi kurtakning to'liq och ilib bo'lishi mazkur tur uchun xali (rangga) tusga kirmagan, oldingi fazadan farqi.
5. Barg kurtaklarning och ilishi-barg kurtaklar to'liq och ilmagan bo'lsa ham, qaysi o'simlikka xos ekanligi bilinadi.
6. Barglarning to'liq och ilib bo'lishi-daraxtlar har kun nazorat kilinib, hamma bargning to'liq och ilishini kuzatish.
7. Barg sarg'ayishining boshlanishi (rang o'zgarishi). Barglar kuz fasli tushishi bilan sarg'aya boradi va normal xolatdagi yatshil barglardan farq qiladi. Bazi bir o'simlik turlarining barglari qishda ham yatshil xolatda bo'ladi. Bu faza o'simliklarda barg tushishi bilan boshlanadi.
8. To'liq sarg'ayishi-barglarda yatshil rangni hosil qilish vaqtida bo'lib, bunda ham normal xolatdagi yatshil barglardan farq qiladi.
9. Barglarning tuqilishini boshlanishi-butunlay farq qilganda va barglarni birma-bir tushishi boshlanadi.
10. Barglarning to'liq tushishi-o'simlik tanasidan barglarning butunlay tuqilishi.
11. Gullatshning boshlanishi-daraxtlarning dastlabki gulini och ilishidan boshlanadi.
12. Gullatshning tugatshi-gul qismlarini butunlay tuqilishida aniqlanadi.
13. Gullatsh bosqichlari 6 balli sistema bilan baxolanadi;5-juda yaxshi;4-yaxshi;3-O'rta;2-past;1-juda past;0-uchramaydi.
14. Meva va urug'larni etilishi-meva va urug'larning rangini o'zgarishi bilan boshlanadi.
15. Meva va urug'larning hosil bo'lishini tug'allanishi-urug' va mevalarning tatshqi tomondan qoplab turgan qobiqi to'liq etilishi vaqtidagi rangni hosil qilgandan keyin bo'ladi.
16. Meva va urug'larni tushishining boshlanishi-birinchi etilgan meva va urug'larning tushishi.

1-jadval.

Fenologik kuzatuv jurnali.

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent oblasti. O'rmon xo'jaligi.

Kuzatuv o'tkazilgan vaqt 18.03. dan 10.12 .gacha. 2000 y.

Oddiy yeryong'oq Pistacia vera	Daraht yoki butaning lotincha o'zbekcha nomi.		
Tog' yonbagri. SV EKS.10.f.	Kuzatuv joyi, kuchat tarkibi, o'rmon tipi		
18.03.	SHira harakatining boshlanishi	O'suv kurtak- larining rivojlanishi	
31.03.	Kurtaklarning burtishi		
19.04.	Kurtaklarning yozilishi		
23.05.	Yangi kurtaklarning to'liq och ilishi		
15.04.	Barglarning ochilib boshlanishi	Barglarning rivojlanishi	
25.04.	Barglarning to'liq och ilishi		
29.07.	Barglarning sargaya boshlatshi		
1.08.	Barglarning to'liq sarg'ayishi		
5.08.	Barglarning tukili boshlatshi		
10.12.	Barglarning to'liq tuqilishi		
♀15.04. ♂ 10.04.	Gullatshning boshlatshi	Gullat shi	
25.04 30.04.	Gullatshning tugatshi		
3 (O'rta)	Gullatshning bosqichlari		
7.07.	Meva tugushni boshlanishi	Mevalarning tugilishi va to'kilishi	
1.08.	Meva tugushni tug'allatshi		
10.08.	Etilgan mevalarning tukila boshlatshi		
5.09.	Etilgan mevalarning tuqilib bo'lishi		
3 (O'rta)	Hosilni yig'ish bosqichlari	Novdanin g o'sishi	
3.04.	Urug'dan yangi novdaning unishi		
10.04.	Novda o'sishining boshlanishi		
	Novda o'sishining tugatshi		
	Novda uishining boshlanishi		
10.06.	Novda o'sishining tugatshi		

17. Meva va urug'larning tushishining tugatshi-hamma meva va urug'larning tushishi bilan aniqlanadi.

18. Hosilni olish darajasi 6 balli sistema bilan baxolanadi; 5-juda yaxshi; 4-yaxshi; 3-O'rta; 2-past; 1-juda past; 0-uchramaydi.

19. Novdaning yuqori qismidan o'sishning boshlanishi-kurtaklarni och ilishi boshlanishidan aniqlanadi.

20. Novdalarning o'sishini tugatishi-ma'lum bir normal uzunlikka etgandan keyin o'sishdan tuxtatishi.

21. YOn tomondagi novdalarning o'sishini boshlanishi va tug'allanishi-bu fazadagi jarayon yuqoridagi fazalardagi kabi aniqlanadi.

Fenologik kuzatuv daraxtlar orkali yoki daraxt gruppalari bir tur hisobiga aniqlanadi va bu ma'lumotlar fenologik kuzatish jurnaliga kiritiladi. Kuzatish natijalaridan foydalanish uchun ular qayta ishlamoq kerak. Aloxida fenologik fazalar oila bilan bog'liq. Fenologik spektrdan keltirilgan daraxtlarni turining vegetasiya davri, gullatishi va boshqa jarayonlarning boshlanishi ko'rsatiladi.

O'rmon xo'jaligida daraxtlar ustidan fenologik kuzatuv olib borish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Masalan, urug'ning vaqtida unib chiqish va hosilni yig'ib olish vaqtlari, eqish muddatlarini kuchat o'tkazish, kuchat o'tkazish muddatlarini oldindan bilamiz.

Fenologik kuzatuvlar odatda meteorologik kuzatuv bilan bir vaqtda olib boriladi. SHunda kuzatuv natijalari aniqroq Chikadi.10-rasm.

Oddiy pistaning fenologik spertri.O'rmon xo'jaligi 2000 y.

